

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 20 993,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 foizga teng bo'ldi.

2024- yil yanvar- mart oylarida YAHM deflyator indeksi 121,8 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 19 481,3 ming so'mni tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2023- yil	2024- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	15 990,1	20 993,1	107,8
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 721,2	20 768,9	107,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	268,9	224,2	108,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 721,2	20 768,9	107,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 189,3	1 337,8	104,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 314,5	16 705,7	108,5
Sanoat	11 815,1	16 136,1	108,4
Qurilish	499,4	569,6	109,6
Xizmatlar	2 217,4	2 725,4	105,8

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2023- yil	2024- yil	
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	516,3	614,5	108,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	304,8	395,6	114,8
boshqa xizmatlar	1 396,3	1 715,3	103,0




Yanvar- mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)



2023- yilning yanvar- mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 7,6 % ni, sanoat tarmog'i 75,2 % ni, qurilish 3,2 % ni va xizmatlar sohasi 14,0 % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar- mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, sanoat tarmog'i 77,7 % ni, qurilish 2,7 % ni va xizmatlar sohasi 13,2 % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar- mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (108,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa (114,8 %), boshqa xizmatlar (103,0 %), qurilish (109,6 %), sanoat (108,4 %), хизматлар (105,8 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (104,2 %) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.



2024- yil yanvar- mart oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

